

**AXBOROT VA OMMAVIY KOMMUNIKATSIYALAR
AGENTLIGINING ANDIJON VILOYATI BO‘LIMI**

**BOBUR NOMIDAGI ANDIJON VILOYATI AXBOROT-
KUTUBXONA MARKAZI**

ILMIY - METODIKA XIZMATI



KUTUBXONA STATISTIKASI:
tushunchasi, maqsad va vazifalari
1-qism

Metodik qo'llanma

Andijon 2023

UDK: 021(072)

BBK: 78.3

Oxunjanova O.Yu. Kutubxona statistikasi: tushunchasi, maqsad va vazifalari: Uslubiy qo'llanma.

Qo'llanmaning maqsadi kutubxona statistikasining umumiy tushunchalarini shuningdek, faoliyatning asosiy yo'nalishlarini aniqlash va kutubxona faoliyati natijalarini monitoring qilishda asosiy ko'rsatkichlardan foydalanish imkonini beradi.

O'zbek tiliga tarjimasi: Ilmiy - metodika xizmati rahbari Shaxabitdinova Z.K.



O'zbekiston Respublikasining 2019-2024-yillarda axborot-kutubxona sohasini rivojlantirish konsepsiyasida axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari va

mexanizmlari belgilab berildi.

Axborot-kutubxona faoliyatini rivojlantirish, boshqaruv salohiyatini oshirish, ilmiy-uslubiy tadqiqotlar olib borishning eng muhim mexanizmining asoslaridan biri kutubxona statistikasi bo'lib, bu axborot-kutubxona muassasasi samarali faoliyatining miqdoriy xarakteristikasi hisoblanadi. Raqamlar shaklidagi statistika uning faolligini xilma-xilligini ochib beradi.

Shu bois, biz viloyat kutubxona jamoasi o'rtasida raqamlarni tahlil qilish metodikasini yoritish va o'qitishni, ayniqsa, ishlab chiqilishi kerak bo'lgan kutubxona boshqaruvi va marketingini joriy etish amaliyotini rivojlantirishni muhim masala deb bilamiz.

Axborot-kutubxona markazlari (keyingi o'rinlarda AKM deb yuritiladi) faoliyatini tahlil qilish va tavsiflash usullaridan biri sifatida kutubxona statistikasining bugungi talablarga muvofiqligi, ahamiyati va mazmuni beqiyosdir.

Kutubxona statistikasi quyidagi yo'llar bilan AKM ish samaradorligini aniqlash muammosini muvaffaqiyatli hal qilish imkonini beradi:

- xizmat ko'lamini, sur'atini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish;
- ko'rsatkichlarning o'zaro bog'lanishini izlash;
- asosiy rivojlanish tendentsiyalarini belgilovchi omillarni tahlil qilish;
- rivojlanish muammolarini o'z vaqtida aniqlash maqsadida kutubxona faoliyati monitoringi va nazoratini ta'minlash;
- muayyan sohalar va vaziyatlarning rivojlanishini bashorat qilish uchun haqiqiy ma'lumotlarni o'rganish.

Kutubxona statistikasi kutubxona ishining holati to'g'risida to'liq va ishonchli statistik ma'lumot bo'lishi kerak. Uning eng muhim tamoyillari:

- to'liqlik;
- samaradorlik;

- ishonchlilik;
- solishtirish qobiliyati;
- professional standartlarga muvofiqligi;
- kutubxonalarning buxgalteriya hujjatlari bilan o'zaro aloqasi.

Barcha ma'lumotlar tezkor (birlamchi buxgalteriya) shakllaridan olinadi. Kutubxona faoliyatining miqdoriy natijalari har oy (chorak, yil) oxirida umumlashtiriladi.

Kutubxona statistikasida ko'rsatkichlarning quyidagi turlari ajratiladi:

1. Mutlaq
2. O'rta
3. Nisbiy

Mutlaq ko'rsatkichlar - bu sonlar.

Kutubxonalarning amaliy faoliyatida kunlik yig'ish va ishlash ko'rsatkichlarini qayta ishlashdir. U kutubxonada qabul qilingan hujjatlarda kutubxona jarayonlari ro'yxatga olishdan iborat bo'lgan kundalik buxgalteriya hisobiga asoslanadi. Bunda jamg'arma bo'yicha yig'ma buxgalteriya kitobi, tuzilmaviy xizmatlardagi ishlarni hisobga olish uchun kundaliklar va daftarlaridir. Yagona hisob birliklari tomonidan kutubxona resurslarini hisobga olish va saqlash ishlaridir.

Uning asosida kutubxonaning ma'lum davrdagi ishining miqdoriy ko'rsatkichi bo'lgan statistik hisob yuritiladi.

Unda keltirilgan barcha ko'rsatkichlar kutubxona tomonidan bajariladigan asosiy ish hajmini aks ettiradi va mutlaq ko'rsatkichlar deb ataladi. Bu raqam:

- kitobxonlar;
- resurslarni berish;
- tashriflar;
- ommaviy tadbirlar;
- bibliografik manbalar;
- qabul qilinuvchi nashrlar va hokazolar.

Mutlaq ko'rsatkichlar kutubxona holatini o'rganish, joriy va istiqbolli rejalarni ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

O'rtacha ko'rsatkichlar bir nechta yoki ko'p bir xil qiymatlarning umumiy yoki yig'ma xarakteristikasidir. O'rtacha ko'rsatkichlar bir xil turdagi

kutubxonalar ishini taqqoslash uchun kerak. O'rtacha ko'rsatkichlar tahlil qilinayotgan yo'nalishning rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash imkonini beradi. O'rtacha ko'rsatkichlar AKM ishini solishtirish, xuddi shu kabi AKM ishini retrospektiv taqqoslash yoki mintaqadagi boshqa AKMlar faoliyati bilan taqqoslash uchun zarur.

Nisbiy ko'rsatkichlar (intensivlik ko'rsatkichlari) - ko'rsatadigan raqamlar:

- bir taqqoslangan qiymatning boshqasiga nisbati;
- dinamika (kitobxonlar soni, kitob berish, kutubxona fondi va boshqalar);
- tuzilmasi (kutubxona fondi, kitobni berish);
- intensivlik (tarkibida ikki xil, lekin o'zaro bog'liq ko'rsatkichlar nisbatini o'lchaydigan qiymatlar);

Eng ko'p ishlatiladigan tezkor ko'rsatkichlar:

- o'qilish ;
- qatnov;
- kitob aylanish;
- ta'minlanish.

Uslubiy qo'llanmaning 1-qismi nafaqat asosiy tushunchalarni, balki AKMning nisbiy ishlash ko'rsatkichlarini, hisoblash formulalarini, tavsiya etilgan standartlarni aniqlash ko'nikmalarini berishga qaratilgan.

O'RTA VA NISBIY KO'RSATKORLARNI HISOBLASH FORMULASI

1. KITOB O'QILISHI o'qishning tezligini xarakterlaydi.

Bu o'qish imkoniyati bir yilda berilgan kitoblarning umumiy sonini bir yilda ro'yxatga olingan kitobxonlarning umumiy soniga bo'lish yo'li bilan hisoblanadi:

O'qilishni hisoblash formulasi = kitob berilish soni o'quvchilar soniga bo'lish orqali chiqariladi.

Masalan: Berilgan nashrlar 120 000 (nusxa) : 5 000 (o'quvchilar soni)
= 24 kitob

Jami: o'qish imkoniyati 24 ta kitob.

2. QATNOV kitobxonlarning kutubxonaga tashrifi faolligini tavsiflaydi va u quyidagi tarzda hisoblanadi:

Qatnovni hisoblash formulasi = tashriflarning umumiy soni
o'quvchilarning umumiy soniga bo'lish orqali
chiqariladi.

Masalan: 2022 yilda umumiy tashriflar soni - 60 000 tani tashkil etdi
yil davomida kitobxonlarning umumiy soni 5000 kishini
tashkil etadi.

Natijalarga ko'ra, qatnov: 60 000 marta: 5 000 kishi = 12 marta

3. KITOB BERILISHI - kutubxona resurslarining (kitoblar, davriy nashrlar, elektron resurslar) 1 kitobxon yoki xizmat ko'rsatuvchi hududning 1 nafar aholisiga o'rtacha qiymatini ko'rsatadi.

Kitob bilan ta'minlash kutubxona resurslari hajmini kitobxonlar soniga yoki hududdagi aholi soniga bo'lish yo'li bilan hisoblanadi.

Kitob berilishni hisoblash formulasi (bu kitobxonni kitob bilan ta'minlanishi) = kutubxona resursi miqdorini kitobxonlar soniga bo'lish orqali chiqariladi.

Masalan: kutubxona fondi ko'rsatkichi (barcha turdagi fondlar bo'yicha) - 200 000 nusxa;

kitobxonlar darajasi - 5000 nafar.

200 000 nusxa : 5000 kitobxon = 40 ta kitob berilish hisoblanadi.

Natijalarga ko'ra, 1 kitobxonning kitob ta'minoti 40 ta kitobni tashkil etadi.

Xizmat ko'rsatilayotgan hududning 1 nafar aholisining kitob bilan ta'minlanishi kutubxona resurslarini aholi soniga bo'lish yo'li bilan hisoblanadi.

Kitoblarni berilish formulasi (bu aholini kitob bilan ta'minlanishi) = kutubxona resursi miqdori aholi soniga bo'lish orqali hisoblanadi.

Masalan: kutubxona fondi ko'rsatkichi 200 000 nusxa, aholi soni ko'rsatkichi 50 000 kishi.

200 000 nusxa : 50 000 aholi = 4 ta kitob

Natijada 1 nafar aholining o'rtacha kitob ta'minoti 4 ta kitobni tashkil qiladi.

Eslatma: Aholi soni 50 minggacha bo'lgan shahar va tumanlarda 1 nafar aholiga kitoblar mavjudligi bo'yicha IFLA standartlari - har bir aholiga 5-7 kitob to'g'ri keladi.

4. KITOB AYLANISHI KO'RSATKICHI - kutubxona resursidan foydalanish faolligini ko'rsatadi.

U kitob berilishini kutubxona resursi miqdoriga bo'lish yo'li bilan hisoblanadi.

Kitob fondini aylanishi formulasi =
$$\frac{\text{kitob berilishi}}{\text{Kutubxona resurslari soni (fond)}}$$

Masalan: Kitob berilish 200 000 nusxa : 200 000 nusxa kutubxona resursiga = 1

Natijada kitob fondining aylanishi 1 dona kitobni tashkil etdi.

5. KUTUBXONA RESURSI KITOB FONDINING YANGILANISHI uning miqdoriy o'zgarishlarini ko'rsatadi.

Qabul qilingan yangi adabiyotlar miqdorini kutubxona resursi qiymatiga bo'lish va 100% ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Fondni yangilash formulasi : olingan nusxalar sonini : kutubxona resurslari soni bo'lish va 100% ko'paytirish kerak.

Masalan: yangi kelgan adabiyotlar 1000 nusxani tashkil etdi : 200 000 nusxa kutubxona fondi va 100% ga ko'paytiring $= 0,5\%$ Bunda ko'rinib turibdiki fondni yangilanishi $0,5\%$ tashkil etdi.

Eslatma: Yil davomida Fondni yangilashi uchun IFLA standarti yiliga 10% ni tashkil qiladi.

6. AHOLINI KUTUBXONA XIZMATI BILAN QAMRAB OLISH hududda kitobxonlikni targ'ib qilish va xizmat ko'rsatish sohasini tavsiflaydi.

U formula bo'yicha hisoblanadi: hududning barcha ro'yxatga olingan o'quvchilari soni ushbu hudud aholisi soniga bo'linadi va 100 foizga ko'paytiriladi.

Hudud aholisini **qamrab olish formulasi** = o'quvchilar sonini hududdagi aholi soni bo'linadi $\times 100\%$

Masalan: barcha ro'yxatga olingan kitobxonlar soni 5000 : berilgan hududning $50\ 000$ aholisi $\times 100\% = 10\%$

Statistik ma'lumotlar o'rganilishi, umumlashtirilishi, tahlil qilinishi va respublika, viloyat, shahar/tumanning yagona axborot-kutubxona xizmatini yaratishga qaratilgan maqsadli dasturlarni ishlab chiqishda foydalanilishi lozim.

Kutubxona statistikasi:

- axborot-kutubxona faoliyati samaradorligi natijalarini monitoring qilish imkonini beradi;

- boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun asos yaratadi;

- kutubxonalar faoliyatini rejalashtirish va ular faoliyati to'g'risida hisobot berish uchun asos hisoblanadi.

- kutubxona ishini statistik tahlil qilish kutubxonalar faoliyatini rivojlantirishni moliyalashtirish va boshqa yordam ko'rsatish bo'yicha so'rovlar asosini tashkil etadish imkonini beradi.

Ishlatilgan manbalar

KUTUBXONA STATISTIKASI Zamonaviy talablar va metodologiya (metodik maslahat) (fessl.ru)